

# TA'LIM JARAYONIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH DASTURLARINING AFZALLIKLARI

**Rajabov Orifjon Xonimqulovich, psixol.f.f.d.(PhD)**

**Jizzax politexnika instituti**

[orifjonrajabov921@gmail.com](mailto:orifjonrajabov921@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarning ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus dasturlarning yaratilish tarixi, nazariyasi va tajribalari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada umumta'lim maktablari yuqori sinf iqtidorli o'quvchilari uchun jadallashtirilgan ta'lim tizimi asosida olib boriladigan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtidor, qobiliyat, iste'dod, qiziquvchanlik, yuqori imkoniyat, bilish jarayonlari, ta'lim, tarbiya, jadallashtirilgan ta'lim, maxsus dastur, shaxs xususiyatlari.

Psixologik tadqiqot va maxsus kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bolalar, aksariyat hollarda, oddiy bolalarga nisbatan birmuncha muvaffaqiyatli bo'lishadi: ta'limni o'zlashtirishlarida muammolar kuzatilmaydi, tengdoshlari bilan yaxshi muloqotda bo'lishadi, yangi sharoitga tezda moslashishadi. Bunda yoshligidan singib ketgan qiziqish va mayllari bolaning kasb tanlashi va muvaffaqiyatlarga erishishida puxta zamin bo'lib xizmat qiladi. Bunday bolalarning ta'limni oson o'zlashtirishidagi yuqori imkoniyatlari inobatga olinganligi va ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmaganligi sababli ayrim muammolar tug'ilishi mumkin.

Hozirgi kunda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun iqtidorli bolalar bilan ishlashning maxsus dasturlari yaratilmoqda, ko'pgina davlatlarda differensial ta'lim (o'quvchining o'zlashtira olish imkoniyatiga qarab ta'limni tashkil etish) yo'lga qo'yilgan. Kompleks-o'quv dasturlari iqtidorli bolalarning erkin ijod qilishlari uchun imkon yaratmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) da bunday bolalar uchun alohida kurslar tashkil qilinib, o'qituvchi va o'quvchi orasida tuzilgan individual "o'quv shartnoma"lari vaqtni tejashga, iqtidorli bolalar uchun esa individual tarzda faoliyat yuritishga keng imkon bermoqda.

Respublikamizda ham bu borada mustaqillikdan keyin e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi va birinchi qadam sifatida ta'lim qonunida iqtidorli bolalarning ta'limini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi belgilab qo'yildi.<sup>1</sup> Hozirda shunday maktablarning ko'pchiligi faoliyat yuritmoqda. Lekin iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirish asosiy yo'nalishi hisoblangan bunday maktablarning barchasida amaliy ta'lim ishlari talab darajasida deb bo'lmaydi. Shu o'rinda qobiliyatli va talantli bolalar bo'yicha Yevropa kengashining (ESNA) eks-prezidenti Dj.Frimenning bir fikrini ta'kidlab o'tish o'rinli: "Hozirda iste'dodlilar

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston, 1997. –B. 23.

uchun asosida hych qanday ilmiy ishlanmalar bo'lmagan ko'plab ta'limiy dasturlar mavjud, ularning mualliflari bunday dasturlarni tuzishda shunchaki taxmin asosida harakat qilishmoqda" [1].

Hattoki, AQSH va G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlarida ham iqtidorli bolalarni maxsus dasturlar bo'yicha o'qitishning deyarli yarim asrlik tajribasi bunday ta'limning hamma joyda ham yuqori sifatda olib borilayotganligiga kafolat bera olmasligini ta'kidlaydi va takomillashtirib borilishini nazarda tutadi.

Qobiliyatli va iste'dodli bolalarni maxsus dastur asosida maktabda o'qitish muammosiga juda ko'p izlanishlar bag'ishlangan (Fe Dhusen,1980; S.Kaplan, 1982; Renzulli, 1977; Forrance, 1988; Sheblanova Ye. I., Averina I.S, 1994; Shumakova N.B, 1994-1996.).

Bu izlanishlar natijalari iqtidorli bolalar uchun yaratiladigan o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablarni ajratish imkonini berdi. Ushbu talablar iqtidorli o'quvchilar uchun nazariy, amaliy va darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar uchun umum e'tirof etilgan talablardir.

Jumladan, iqtidorli bolalar ta'limini tashkillashtirish metodikalarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha S.Keplen tomonidan iste'dodli o'quvchilar ta'lim dasturlariga talablar ro'yxati ishlab chiqildi [2].

Keplen tomonidan ishlab chiqilgan iste'dodli o'quvchilar ta'lim dasturlariga talablar ro'yxati:

- bola tomonidan tanlangan mavzu va muammoning chuqur o'rganilishini taqdirlash;

- o'qishda mustaqillik, ya'ni ta'limning o'quvchi tomonidan boshqarilishini ta'minlash;

- bilimlarni va izlanish ishlari metodlarini rivojlantirish ;

- samarali fikrlashning yuqori darajasini rivojlantirish (ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal kila bilish);

- har xil material, usul va shakllardan foydalanib yaratilgan ishni taqdirlash;

- o'zini o'zi anglash va tushunish, o'zga kishilarning individual xususiyatlarini tushunishni rivojlantirish ;

- o'quvchilar tomonidan ish natijalarini tanqidiy baholash va taqdirlanishini o'rgatish.

Butunjahon kengashi tomonidan ma'qullangan ushbu talablar ro'yxatini keyinchalik N.B.Shumakova (2003) davom ettirib, ijodkor shaxsining rivojlanishi va bolalarning o'sha xarakterli xususiyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasini ko'rsatib, qobiliyatli va iste'dodli bolalar uchun dasturlar quyidagicha bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi:

- o'quvchilar tanlagan mavzularni chuqur o'rganishi uchun imkoniyat taqdim etish;

- o'qishda, ya'ni bolaning o'zi idora qiladigan ta'limda mustaqillikni ta'minlash;

- tadqiqot ishlarining usullari va ko'nikmalarini rivojlantirish;

- ijodiy, tanqidiy va abstrakt–mantiqiy tafakkurni rivojlantirish;

– odatiy stereotiplar va umum qabul qilingan qarashlarni parchalovchi yangi g'oyalarni ilgari surishni rag'batlantirish va rivojlantirish;

– o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi tushunish, shaxsiy qobiliyatlarining o'ziga xosligini anglash va boshqa odamlarning individual xususiyatlarini tushunishni rivojlantirishga ko'maklashish;

– bolalarni turli-tuman mezonlar yordamida ishning natijalarini baholashga o'rgatish, ishni o'quvchilarning o'zlari baholashlarini rag'batlantirishi zarur.

Iqtidorli bolalarni o'qitish ideal dasturi ana shu talablarga javob berishi kerak deb taxmin qilinadi.

Ya'ni, bu talablar maktabgacha yoshdagi yoki katta maktab yoshidagi iqtidorli bolalarni o'qitishda universal asos sifatida qabul qilinadi. Bu asoslar iqtidorli bolalarni o'qitish va rivojlantirishda samarali natijani ta'minlovchi yo'nalish bo'ladi.

Iqtidorli bolalar uchun yaratilgan ta'lim dasturlarini tuzishga qo'yilgan talablar ro'yxati, jamiyatning o'zgarishi va ta'lim siyosatining rivojlanishi asosida to'ldirilib borilishi kerak.

Yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishni ta'minlashda, ularning talab va imkoniyatlariga javob bera oladigan maxsus o'quv dasturlarini yaratish ko'pgina muammolarni yechishda ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatimizda yuqori qobiliyatli bolalar uchun sinflar, maktablar ochish imkoniyatining paydo bo'lishi, bunday o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishni ta'minlovchi o'qitish amaliyoti ya'ni, maktablar, sinflarning ochilishi, ilmiy asoslangan dasturlar va ta'lim mazmunini yaratishdan ilgarilab ketishiga olib keldi. Paydo bo'lgan ilmiy va amaliy uzilish salbiy natijalarga, xususan, shakl va mazmun nomutanosibligiga olib keldi. Maxsus maktablar ko'p, lekin ularda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar va ilmiy jamoatchilik tasdiqlagan dasturlar ozchilikni tashkil qiladi.

Iqtidorli o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi, ilmiy asoslangan dasturlarni, bir tomondan ijodiy rivojlanish va shaxs bo'lib yetishishdagi umumiy psixologik xususiyatlarni inobatga olmasdan, ikkinchi tomondan iqtidorli bolalarning o'ziga xos talablari va imkoniyatlarini inobatga olmasdan yaratib bo'lmaydi. Bunday bolalarning o'quv jarayonida erisha oladigan imkoniyat, qiziqish, maqsad va talablari haqidagi ilmiy taxminlar asos qilib olingan takdirdagina, o'quv dasturi differensiasiyalangan deb atalishi mumkin. U yoki bu yoshdagi iqtidorli o'quvchilarning ijodiy va intellektual talablarini aniqlashdagi birinchi harakatdan biz bunday o'quvchilarni rivojlantiruvchi o'quv dasturni yaratish yo'lidagi qiyinchiliklarga duch kelamiz. Iqtidorli o'quvchilarning o'zaro individual farqlari shunchalik yuqoriki, hatto yoshlariga xos xususiyatlari ham ortda qolishi extimoldan holi emas. Amalda bu shunda namoyon bo'ladiki, bunday bola bilan tanishmagunga qadar, uning imkoniyat va xususiyatlari haqida hech qanday fikrga ega bo'la olmaymiz. Iqtidorli bolalarning umumiy xususiyatlari va ta'limga munosabati sifatida shuni ajratish mumkinki, ular tengqurlariga qaraganda keng qamrovli muammolar bilan qiziqadilar, nafaqat hozirgi balki kelajak muammolariga nazarlarini qaratadilar, o'ta qiziquvchanliklari, rivojlangan tasavvurlari, ijodiy va mantiqiy fikrlashlari, ilgarilab ketgan bilim va tushunchalari,

muhokama va fikrlashlarining mustaqilligi, muammolarni hal qilishdagi talabchanliklari bilan ajralib turadilar. Shularni nazarga olgan holda biz taklif etayotgan maxsus dastur dastlabki yondashuvlarni ifoda eadi.

Dastur uzoq va uzluksiz davom etuvchi (longityud) eksperiment bo'lib, bunda bevosita darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda yuqori o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quvchilar ta'limi tashkil etiladi va bilish jarayonlaridagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, iqtidorli o'quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda katta imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

**I.** Dars mashg'uloti jarayonida o'quvchi fan doirasida bilim va ko'nikma va ma'lum ma'noda malakaga ega bo'ladi. O'quvchining bunday ehtiyojlari namunali tashkillashtirilgan dars mashg'ulotlari va ta'lim dasturlari orqali qondiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan yuqori sinf iqtidorli o'quvchilarining ta'limini tashkil etish va rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan ishlar kundan – kunga ko'payib bormoqda, lekin, yuqorida aytilganidek, ularning ayrimlaridagina iqtidorli o'quvchilarning talab va ehtiyojlariga mos keladigan maxsus ta'lim dasturlari mavjud.

Muammoning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib adabiyot fani bo'yicha iqtidorli o'quvchilar uchun bilish jarayonlarini rivojlantirish asosiga tuzilgan maxsus dastur ishlab chiqildi [3]. Bu dastur maktabning metod birlashma yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullanishi va rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi zarur. Dasturni ishlab chiqishda maktablarning adabiyot fani bo'yicha yillik o'quv rejasi maxsus dastur asosida kengaytirildi. Dars mashg'ulotlari uchun adabiyot fanidan umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi asosida rejadagi mavzular va qo'shimcha kiritilgan mavzular (8-sinfda 10 ta mavzu, 9-sinfda 12 ta mavzu) mazmunan yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari (mashg'ulotlarda foydalanilgan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining mazmuni o'quv-uslubiy qo'llanmada keltirilgan [3]) asosida chuqurlashtirildi va boyitildi.

Binobarin, o'quvchilarda badiiy adabiyotni o'qish va tushunish malakasini shakllantirish – didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o'quvchining badiiyatni his qilish holati, uning ruhiyati bilan bog'lansa, badiiy asarni o'qib o'rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma'naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta'lim maqsadiga ko'ra rivojlanishi didaktika bilan bog'lanadi; o'quvchining adabiy tahlil talablarini o'rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o'zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga moc tarzda bu bilimlarga tayanib, amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrlashi – metodika bilan bog'lanadi.

Bir qancha tadqiqot ishlarida ta'lim dasturining samaradorligi tegishli aqliy saviyadagi bolalarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi [4, 5, 6].

Shu maqsaddan ham taklif etilgan ta'lim dasturida adabiyot fani bo'yicha maxsus metodikalar asosida saralangan o'quvchilarning fan sohasidagi

mashg'ulotlarni o'zlashtira olish va bajara olish ehtiyoji hamda imkoniyatlari inobatga olinadi.

Aksariyat tadqiqotchilar iqtidorli o'quvchilar ta'limining u yoki bu aniq vazifalarining ustunlik qilishiga qarab, dasturlarni turkumlarga ajratishgan.

Rivojlantiruvchi dasturlar iqtidorli o'quvchilarning nafaqat yuqori bilish ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi, balki ularning mustaqillikka bo'lgan intilishlarini ham qondirish imkonini yuzaga chiqarishi kerak. Bunda iqtidorli bolalar uchun ta'lim jarayonining avval aytib o'tilgan ro'yxatda qayd qilingan ko'plab talablari ham inobatga olinadi. Odatda, bunday dasturlar "ochiq turdagi" muammolarni o'rganishni ko'zda tutadi, ular yangi g'oyalarni ilgari surishni rag'batlantiradi, usul va ko'nikmalarni rivojlantiradi, turli-tuman nostandart materiallardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi, bolalarni o'z ishlarini turlicha mezonlar yordamida baholashga o'rgatadi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida o'quvchilar ongiga singdiriladigan bilimlar ko'proq nazariyalar bilan bog'lanib qolmoqda. Amaliy topshiriqlar va yechimlardan juda kam foydalanilgan holda, dars samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi yangi pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalarining katta imkoniyatlaridan unumli foydalanish nazardan chetda qolmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bir qolipda standart shaklda qolishi va bilim darajasining rivojlanishdan ortda qolishiga olib keladi.

Badiiy asarlar tahlili orqali o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyati o'sadi, og'zaki va yozma nutqi takomillashadi, o'quvchida o'z fikrlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash malakalari shakllantiriladi. Hammani bir qolipda fikrlashdan ozod qilib, ma'lum mavzu yuzasidan rang-barang fikr mulohazalar yuzaga kelishida eng samarali hisoblangan tahlil usullariga tayanib ish yuritilsa, adabiy ta'lim o'zining bosh maqsad- muddaosiga erishadi.

Bundan anglashiladiki, o'qituvchining qo'shimcha nazariy ma'lumotlari va dars mashg'ulotini tashkillashtirishda foydalanilgan interfaol metodlar mavzuni o'quvchilar ongiga singdirishda samarali amaliy yordam beradi. Jumladan, o'quvchilar badiiy asar misolida asarni to'liq tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi; har qanday badiiy asar ustida ishlash ko'nikmasi shakllanadi; o'quvchilar badiiy asarni tahlil qilib, epizodlar ustida ishlash jarayonida o'z munosabatlarini bildira olish va xulosalar chiqarishni o'rganadilar.

O'tkaziladigan dars mashg'ulotlari shuni ko'rsatadiki, darsda ikki tomonlama (o'qituvchi-o'quvchi) faolligni ta'minlagan holda, nazariy tushunchalar bilan birga amaliy masalalarga ham ko'proq e'tibor qaratish lozim. Dars ishlanmalarida keltirilganidek, o'quvchini zeriktiradigan va ishtirokini kam ta'minlaydigan topshiriqlardan qochib, ular uchun faol qatnashchilar sifatida dars mashg'ulotlari tashkillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**II.** Umumta'lim maktablarida fanlar uchun maxsus soatlarning mavjud emasligi muammoning yechimlarini yanada murakkablashtiradi. Shunga ko'ra, iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berishda adabiy materiallarni o'rganish jarayonida sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning imkoniyatlaridan foydalanish zarurati ham ochiq seziladi. Lekin ushbu masala murakkab, ayni paytda dolzarb

pedagogik-psixologik muammo bo'lib, uning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etilmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinligicha qolaveradi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, respublikamizda fanlar bo'yicha darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar juda kamchilikni tashkil etadi, borlari ham asoslangan dasturlar bilan to'liq ta'minlanmagan. Bundan tashqari umumta'lim maktablaridagi dars soatlarining kamligi va bu soatlarda o'quvchilar fan bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni to'laligicha o'zlashtira olmayotganligi darsdan tashqari mashg'ulotlarni to'g'ri tashkillashtirish va uyushtirish lozimligini ko'rsatadi.

Shu sababdan iqtidorli o'quvchilar uchun darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar uchun ta'lim metodikalarini ishlab chiqish va joriy etish zarurati tug'ildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni muhimligi e'tiborga olinib fanlar bazasida to'garaklar tashkil etilishi zarur. Iqtidorli o'quvchilar guruhi uchun darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar reja-dasturi va ishlanmalari, aynan o'quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqib, jadallashtirish asosida ishlab chiqilishi kerak.

Maxsus dastur S.Keplan (1982) va N.B.Shumakova (2003) lar taqdim etgan iqtidorli o'quvchilar ta'lim dasturlari javob berishi kerak bo'lgan talablar asosida shakllantiriladi.

Mashg'ulotlarning o'quv-tarbiyaviy maqsadlari quyidagilar:

**Ta'limiy**–iqtidorli o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish.

**Tarbiyaviy**–milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida shakllanib kelayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlari asosida ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi** – jadallashtirilgan ta'lim tizimi asosida iqtidorli o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilimi, fikrlashi hamda amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Mashg'ulotlarda ishtirokchilar tomonidan fan yangiliklari, mavzular to'g'risida matbuot va internet ma'lumotlari tayyorlanib, o'quvchilarga qiziqarli tarzda taqdim etib boriladi.

To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarda baholash, tanqid qilish, tahlil qilish, xulosalash va o'z munosabatlarini bildira olish kabi masalalar rivojiga imkon beradi. Maxsus reja–dasturga asosan mashg'ulotlarda o'quvchilarning shaxs xususiyatlari va bilish jarayonlari rivojlantiriladi.

Darsdan tashqari tashkil etiladigan mashg'ulotlarning afzalligi shundaki, u dars jadvali doirasida chegaralanmagan va o'quv rejasi bo'yicha reglamentlashmagan. U ixtiyoriy tarzda olib boriladi va bunda o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlariga tayaniladi.

O'tkazilgan tadbirlar shuni ko'rsatadiki, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarni izchil tashkil etish va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Фримен Дж. Одаренные дети и их образование: Обзор международных исследований // Иностранная психология. -1999. - №11. – С. 10-18. 12-б.
2. Kaplan S. Differentiated Curricula for the Gifted. Ventura, CA: Ventura Country Superintendent of Schools Office, 1982.
3. Rajabov O.X. Adabiyot fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan darsdan tashqari olib boriladigan to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar (8-9 sinflar uchun) // O'quv-uslubiy nashr. – T.: “Mumtoz so'z”. 2011. – B. 64.
4. Лейтес Н.С. Психология одаренности детей и подростков / Под ред. Н. С. Лейтеса. — М: Изд. Центр Академия, 1996. — 416 с.
5. Шумакова Н.Б. Междисциплинарный подход к обучению одаренных детей // Вопросы психологии. – 1996. - № 3. – С. 34-43.
6. Gifted Development at Schools: Research and Practice. Ed. By Laszlo Ba-logh, Laszlo Toth. University of Debrecen. Department of Educational and Psychology. — 2001. — 236 p.